

O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDA NUTQIY ETIKET MASALASI

Bozorov Hamid Xo'shmurodovich

Termiz davlat universiteti

[Tel:+99893 791 88 12](tel:+998937918812)

Annotatsiya. Maqolada lingvomadaniyatshunoslikning o'rganish obyektlaridan biri hisoblangan nutqiy etiket haqida atroflicha fikrlar bildirilgan. Nutqiy etiketlarni namoyon bo'lishi, har bir xalqning o'ziga xos nutqiy etiket birliklari, shuningdek, ushbu birliklarni qo'llash jarayonida nolisoniy omillarning o'rni o'zbek xalq ertaklari misolida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: nutqiy etiket, o'zbek xalq ertaklari, mentalitet, adresant, adresat, lingvomadaniyat.

ПРОБЛЕМА РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗКАХ

Аннотация. В статье подробно изложены мысли о речевом этикете, который считается одним из объектов изучения лингвокультурологии. На примере узбекских народных сказок анализируются проявления речевого этикета, уникальные единицы речевого этикета каждого народа, а также роль неязыковых факторов в процессе употребления этих единиц.

Ключевые слова: речевой этикет, узбекские народные сказки, манталитет, адресант, адресат, лингвокультурология.

THE PROBLEM OF SPEECH ETIQUETTE IN UZBEK FOLK TALES

Abstract. In the article, detailed thoughts are expressed about speech etiquette, which is considered one of the objects of study of linguistic and cultural studies. Manifestation of speech etiquette, unique speech etiquette units of each nation, as well as the role of non-linguistic factors in the process of using these units are analyzed on the example of Uzbek folk tales.

Key words: speech etiquette, Uzbek folk tales, mentality, adressant, adressat, linguistic culture.

Kirish

Har bir xalqning o'ziga xos so'zlashuv uslubi, nutq madaniyati mavjud. Nutqning madaniyligini ko'rsatishda etiket birliklardan o'rinli va samarali foydalanish muhim hisoblanadi. So'zlashuv jarayonida til birliklaridan tashqari nolisoniy omillar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ma'lum bir xalqning asrlar davomida shakllangan, qoliplashgan etiket birliklari boshqa xalqdan farq qiladi. Bu esa har bir xalqning madaniyati, milliy qadriyatlari, an'ana va urf-odatlarida ham o'z aksini topadi. Xususan, o'zbek xalqiga xos nutqiy etiketlar xalq og'zaki ijodining eng ommabop janri bo'lgan ertaklarda ko'plab uchraydi. Xalq ertaklarimizdagi nutqiy etiketlar xalqimiz ruhiyatida asrlar osha yashab kelmoqda. O'zbek xalq ertaklarini lingvomadaniy jihatdan tahlil qilar ekanmiz, unda etnopsixolongvistikaning o'rni katta ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Chunki lingvomadaniyatshunoslik etnopsixolingvistika bilan ham chambarchas aloqada bo'ladi. Etnopsixolingvistika nutqiy faoliyatda muayyan an'analar bilan bog'liq muomala elementlarining qanday bo'lishini, turli til egalarining verbal va noverbal muloqotidagi farqlarni o'rganadi. Nutqiy etiket va "olamning lisoniy manzarasi"ni, turli xalqlardagi ikki va ko'p tillilik hodisalarini tadqiq etadi [11]. Etnopsixolingvistikaning maqsadi haqida V.Krasnitskiy quyidagilarni keltirib o'tadi:

- 1) milliy-mental til kompleksning inikosi va namoyon bo'lishi sifatida milliy tilning faoliyat ko'rsatish xususiyatlarini tavsiflash va tushuntirish;
- 2) muayyan milliy-lingvomadaniy hamjamiyat vakillarining kommunikativ va birinchi navbatda, nutqiy xulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- 3) milliy nutqning o'ziga xos xususiyatlari va ularning milliy va madaniy o'ziga xosligini oldindan belgilab beruvchi omillar. Boshqacha aytganda, bu fan nutq faoliyati, til ongi, muloqotning milliy-madaniy, etnopsixolingvistik determinizmni o'rganishga mo'ljallangan [2].

Adabiyotlar tahlili

Etiket tushunchasi Misrda mil.av. 2,5-3 ming yillikda paydo bo'lagan. Etiket atama sifatida XVII asr oxirida adabiyotlarda qayd etila boshlangan. Etiket so'zi

O‘TILda quyidagicha izohlanadi: Etiket [fr. Etiquette – o‘dob-axloq, marosim tartibi] biror jamiyatda, ijtimoiy guruh va sh.k.da qabul qilingan o‘zaro muomala, o‘dob-axloq, marosim tartibi, qoidalar [O‘TIL.V.61]. “Etiket” so‘zining asosini “etika” so‘zi tashkil etib, grakcha “etos” – odat, udum, taomil, rasm-rusum, o‘dob-axloq, fe‘l-atvor, xarakter degan ma’nolarni anglatadi. Nutqiy etiket esa lingvistik nuqtayi nazardan XX asr boshlarida tadqiqi qilina boshladi. Yapon, xitoy tilshunosligida XX asrning 20-yillaridan, jahon tilshunosligida 60-yillaridan beri dolzarb mavzu va qizg‘in bahs sifatida o‘rganib kelinmoqda [7]. Sh.Safarov eteket tushunchasini dastlab hurmat tamoyillari yuzaga chiqishini qayd etadi. Shuningdek, odatiy talqindagi “*hurmat*” tushunchasi etiket, o‘dob normalari bilan bog‘lanadi va bir shaxsning ikkinchisiga nisbatan e‘tiborli bo‘lishi anglashiladi [6], degan fikrlarni bildirib o‘tadi. Ba’zi manbalarda nutq etiketi – insonlarning rasmiy va norasmiy vaziyatlardagi o‘zaro muloqotida ularning ijtimoiy va psixologik roliga mos ravishda amal qilinadigan ijtimoiy va madaniy o‘ziga xos nutqiy muomala qoidalar majmui, “ijtimoiy silliqlangan” hudud, muloqotning milliy-madaniy komponenti, deb ma’lumot beriladi. Amaliy filosofiyaga doir bu tushunchaning asosi bo‘lgan “etiklik” istilohi fanga Aristotel tomonidan olib kirilgan bo‘lib, buyuk yunon faylasufi ham avvalo, uning o‘zagidagi grekcha “etos” so‘zi ma’nosiga, masalaning o‘dob-axloq jihatiga alohida urg‘u bergan. Shundan kelib chiqadigan “etiket” tushunchasi esa inson va jamiyatga xos axloqiy harakat, holat, ichki va tashqi qoidalarining normalari, mezonlarini anglatadi [8].

Maslova nutqiy etiket birliklarini lingvomadaniyatshunoslikning o‘rganish obyektiga kirishi lozimligi haqida fikr yuritib: “Nutqiy etiket munosabatlari universal, ammo ularning namoyon bo‘lishi milliy xususiyatga ega. Shuning uchun nutqiy etiket lingvomadaniyat tomonidan o‘rganilishi kerak” [3], deb ta’kidlaydi. Darhaqiqat, Malovaning ta’biri o‘rinli. Chunki har bir xalqning o‘ziga xos nutqiy etiketlari mavjud bo‘lib, boshqa xalqlardan farqlanadi.

Asosiy qism

Lingvomadaniyatshunoslikda nutqiy etiket ma'lum bir xalqning nutqida jamiyat, muayyan sharoit, turli urf-odatlar, marosimlar, e'tiqodlar ta'sirida yuzada chiqadigan ifoda shakli sifatida qaraladi. Nutqiy etiket birliklarini o'rinli qo'llashda so'zlovchi va tinglovchining ma'lum mahoratga ega bo'lishi katta ahamiyat kasb etmaydi, balki umumiy qoida talablari asosiy o'rinni egallaydi. Masalan, shved tilida prinsipial ravishda *Ni (siz)* shakli mavjud, ammo uni faqat juda keksa odamlar bilan muloqot qilishda ishlatish mumkin. Boshqa holatlarda shunday murojaat qilinsa, muloqot jarayonida sherigi o'zini noqulay his qiladi [2]. O'zbek lingvomadaniyatida begona (kichik yoshda bo'lsa ham) va o'zidan yoshi katta kishiga "siz" olmoshi yordamida murojaat qilishi o'zbek mentalitetiga xos bo'lib, bunday hollarda "sen" olmoshi bilan murojaat qilish noqulaylikni keltrib chiqaradi. Bunday murojaat shakli asrlar davomida shakllangan xalqimizning lisoniy manzarasidan o'rin olib, ajdoddan avlodga o'tib kelmoqda. A.Leontev: "Til – ijtimoiy xotiraning bir qismi", deb ta'kidlaydi. Bu esa har bir millat mentalitetiga xos bo'lgan nutqiy etiketlarining jahon xalqlari lisoniy manzarasida milliy-madaniy xususiyatlarni saqlashga asos bo'ladi.

O'zbek xalq ertaklar tilida ma'lum bir xalqning o'tmishi, madaniyati, milliy urf-odatlar, an'ana va marosimlari yashaydi hamda o'zbek millatiga xos nutqiy etiketlar muhim vazifa bajaradi. Ertak matnlarida qo'llangan nutqiy etiket birliklari xalq madaniyatini ko'rsatib beradigan omillardan biri hisoblanadi. Inson ruhiyati, millati va yashash joyi, ma'naviyati va madaniyati, e'tiqodi va urf-odati, yoshi va jinsi, kasb-hunari va ijtimoiy o'rni kabi qator sotsial umumlashmalarni o'zida zuhr etadigan milliy xarakter [5] o'zbek xalq ertaklari tilida ko'p uchraydi.

O'zbek xalq ertaklari xalqimiz tarixini bayon qiluvchi madaniy boyliklardan biri bo'lib, unda o'zbek xalqi lingvomadaniyatiga xos nutqiy etiketlar talaygina. Jumladan, xalq ertaklarida o'zbeklarga xos salomlashish, mehmon kutish, hurmatni amalga oshirishning turli ko'rinishlari, oiladagi nutqiy etiketlar, murojaatlar va shu kabilarda o'z ifodasini topgan: "... nutqiy etiketlar bo'lgan matnlar o'zida milliy-madaniy qadriyatlarni tajassum etgan lisoniy-madaniy

fenomen sifatida qayd etilishi [10] o'zbek xalq ertaklari tilini tadqiq qilish zarurligini ko'rsatadi.

Bir kuni shayxning o'g'li Ziyod botirga:

- *Birodar, siz bu saroyda yotmang, men mahallamdan bir hovli topib qo'ydim. Shuni sizga olib beraman, - debdi* (Uch og'ayni botirlar. "Ziyod botir", 209-b.). Misolda yoshi katta shaxsning yangi kelgan mehmonga mulozamati, uni o'ziga yaqin olish uchun "**siz**" olmoshi orqali murojaat qilishi kuzatiladi. Bu o'rinda o'zbek mentalitetiga xos bir nechta mental xususiyatlar namoyon bo'ladi. Jumladan, birinchi bor ko'rib turgan inson bilan samimiy munosabatda bo'lish, mehmonnavozlik, yaqindan tanishish uchun o'zini unga yaqin tutish va h.k.

Ertaklar tilida o'ziga xos milliy-mental xususiyatlarni yuzaga kelishida muloqot jarayonida muhim hisoblanadi. Quyidagi ertak matnida muloqot xarakterining milliy-mental xususiyatlari o'z ifodasini topgan: *Bir kuni kechasi er-xotin choy ichib o'tirishgan ekan, o'g'rilar tomida dupurlab yurib qolishibdi. Buni sezgan uy egasi, xotiniga:*

- *Choyni shopir, Shomurodga ber, to'rdagi to'rtoviga ber, adandagi oltisiga ber, o'zing ichib menga ber, uxlab yotganlar baloni ichsin! – debdi.*

Buni eshitib o'g'rilar: "Odam ko'p ekan", deb uyga tusholmay qaytib ketibdilar (Oyjamol. "Er-xotin va o'g'rilar", 105-b.). Ushbu ertak matni to'liqligicha berildi. Matndagi "*choyni shopir*" (o'zbek xalqiga xos mental xususiyat – ovqatdan so'ng choy ichish), "*Shomurodga ber*" (erning ayoliga nisbatan huquqining balandligi), "*uxlab yotganlar baloni ichsin*" (o'zbeklarga xos subyektiv fikr) birliklari o'zbek xalqiga xos muomala munosabatini yuzaga chiqargan. Ayniqsa, erning ayoliga munosabatida milliy-mental xususiyat yaqqol ko'zga tashlanadi.

Nutqiy etiketlarning lingvomadaniy birlik sifatida namoyon bo'lishida ma'lum bir xalqning o'ziga xos qolipdagi salomlashishda ko'zga tashlanadi. Bu jarayonda lingvopragmatikaning o'rni ham katta bo'lib, ma'lum bir xalqning milliy-mental xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Buni S.Mo'minov quyidagicha izohlaydi: Jahon xalqlari lingvomadaniyatida nutqiy etiketlarning

o'ziga xos jihatlari haqida gap ketganda, ma'lum bir xalqqa xos nolisoniy milliy o'ziga xosliklar, muloqot akti, ularning lisoniy ifodalari alohida ahamiyatga ega [5]. Ayniqsa, bunday holatlar salomlashish jarayonida yosh, jins, mavqe, kasb-kori va h.k.lar inobatga olinishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Nutqiy etiket – ijtimoiy fenomen hamda kuzatvchanlik asosida o'rganilishi va tushunilishi mumkin. Masalan, rus va boshqa Yevropa xalqlarida qo'l berib so'rashish Yaponiyada tushunmovchilik, hurmatsizlikni keltirib chiqarsa, ba'zi arab davlatlarida erkaklarning o'pib ko'rishishi boshqa millat vakillari uchun g'ayrioddiy ko'rinadi [7]. Bu esa har bir xalqning o'ziga xos madaniyati, mentaliteti, e'tiqodi, an'analari, qadriyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, lingvistik jihatdan jahon xalqlarida salomlashish va ko'rishishda nutqiy birliklardan foydalanish jins nuqtayi nazardan farqlanishi kuzatiladi. Masalan, adigey xalqi erkaklar nutqida salomlashishning yigirmaga yaqin turlari mavjudligi, ayollari nutqida esa bunday ko'rinish mavjud emas [5]. O'zbek xalqi mentalitetida ayollar va erkaklar nutqida salomlashish bilan bog'liq nutqiy birliklardan foydalanishda islom dinining ta'siri sezilib turadi. Xususan, o'zbek xalqi lisoniy manzarasida salom berish farz hisoblanadi. O'zbek xalq ertaklari matnida ham “*salom berish*” farz hisoblanib, “*alik oluvchi*”larning ko'pchiligi yovuz (ajdar, dev kabi mifonim, turli yovvoyi hayvonlar, yolg'iz kampir va boshqalar) bo'lsa-da, javob qaytarish qarz tariqasida talqin qilingan. Jumladan, ertaklarda ko'p uchrovchi “*gar saloming bo'lmasa, ikki yamlab bir yutardim*” jumlasini ko'p uchraydi. O'zbek nutqiy etiketida salomlashish bilan bog'liq jarayonlar alohida o'ringa ega. O'zbek tilida salomlashishda kunning qaysi vaqtida bo'lishidan qat'iy nazar adresantning “*Assalomu alaykum*” tarzida, adresatning javobi ham aynan bir xil - “*Vaalaykum assalom*” tarzida ifodalanadi: *Qiz darhol qo'lini ko'ksiga qo'yib: - Assalomu alaykum, buvijon! – debdi.*
- Vaalaykum assalom, kel qizim, kel! Xo'sh, nima kulfat tushdi boshingga? – deb so'rabdi kampir (Uch og'ayni botirlar. “Podachining qizi”, 21-b.).

Nutqiy etiketlarning ma'lum bir xalqqa oid jihatlari paralingvistik vositalarga (yuz ifodalari, tabassumi, qarashi, imo-ishoralari va h.k.lar) ham muhim

hisoblanadi. Yuqoridagi misolda ifodalangan qizning qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib salom berishi o‘zbek qizlariga xos mental ifodani yuzaga chiqargan. Quyidagi ertak matnida bo‘ri va echki antropomorfizmlarining mavqe nuqtayi nazardan salom berish hamda muloqotga kirishishning mental xususiyati tasvirlangan: *Bo‘ri g‘or oldidagi supachada dam olib yotgan ekan. Echki unga ta‘zim qilib, salom beribdi va qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib:*

- *Bo‘ri aka, - debdi, - kecha men yo‘g‘imda bolalarimdan uchtasini qandaydir noma‘lum maxluq yeb ketibdi. Men shunga xudoyi qildim, agar janobingizning ko‘ngillari tilasa, bizning uyimizga qadam ranjida qilsalar* (Oyjamol. “Echkining o‘ch olishi”, 164-b.). Quyidagi ertak matnida esa podsho va vazirning yoshi kichik bo‘lganligi bois katta yoshdagi shaxga nisbatan o‘rnidan turib salom berishi o‘zbek xalqiga xos milliy-madaniy xususiyatlarni ifodalagan: *Ikkovlari boqqa kiribdilar va hayron bo‘lib, bir-biriga qarab o‘tiribdilar. Bog‘ning bir burchagidan bir chol chiqib kelibdi:*

- *Ha, bolalarim, nima qilib o‘tiribsizlar? – deb so‘rabdi.*

Bular darhol o‘rinlaridan turib, salom beribdilar. Podshoh bilan vazir bir-birlariga qarab qo‘yishibdi va befarzand ekanliklari, shu sababdan xafa bo‘lib, mol-dunyodan kechib, shu joyga kelganliklarini gapiribdilar (Oyjamol. “Tohir va Zuhra”, 33-b.).

S.Mo‘minov kishilar so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi muloqot jarayoni haqida fikr bildirar ekan, adresant va adresat faoliyatini ham funksional, ham kompozitsion jihatdan farqlash lozimligini tavsiya etadi [5]. Quyidagi ertak matni orqali ushbu bosqichlarni ko‘rib chiqamiz:

- *Assalomu alaykum, bobo, - debdi. Keyin nima maqsadda yo‘lga chiqqanini aytib: - Shu toyimni izlab topmasdan uyga qaytmayman. O‘lsam o‘lamanki, uni topaman, - debdi.*

Shunda chol:

- *Toying shu yerda, uni anovi oyog‘i daroz, o‘zi xo‘roz maxluq olib qochgan, - debdi.*

Bola:

- *Uni qanday olsam bo‘ladi, degan ekan, chol:*
 - *Bolam, toyingni endi olish juda mushkul, qaytib ketaver, behudaga o‘lib, juvormarg bo‘lib ketma, - debdi.*

Bola:

- *Ota, shu toyim yo‘lida o‘limimga ham roziman, - debdi.*

Chol: - Unday bo‘lsa, gapimga yaxshilab quloq sol... (Uch og‘ayni botirlar. “Non qudrati”, 283-b.).

№	Adresant faoliyati bosqichlari:	Misol	Adresat faoliyati bosqichlari:	Misol
1	Salomlashuv va murojaat bosqichi.	Assalomu alaykum, bobo	Tinglash bosqichi.	Adresant faoliyatining barcha bosqichlarida o‘z ifodasini topgan
2	Tanishuv bosqichi.	Tanishuv jarayoni salomlashish jarayonining o‘zida bayon etilgan va daromad bosqichi bilan muloqotning yaxlitlanishiga sabab bo‘lgan.	Munosabat bildirish bosqichi	Toying shu yerda, uni anovi oyog‘i daroz, o‘zi xo‘roz maxluq olib qochgan
3	Daromad bosqichi.	Shu toyimni izlab topmasdan uyga qaytmayman, O‘lsam o‘lamanki, uni topaman		
4	Muddao bosqichi.	Uni qanday olsam		

		bo'ladi		
5	Xotima bosqichi.	Ota, shu toyim yo'lida o'limimga ham roziman		

Ushbu bosqichlar jahon xalqlarining ko'pchiligi uchun umumiy bo'lib, paralingvistik va etnopsixolingvistik jihatdan ma'lum farqlarni yuzaga keltirib chiqaradi. Jumladan, o'zbek xalqi lingvomadaniyatida salomlashish jarayoni muloqot stereotiplarida ko'zga tashlanadi. Salomlashib bo'lgandan so'ng "so'rashish" jarayoni ham turli xalqlar lingvomadaniyatida mental xususiyatlarni yuzaga chiqaradi. O'zbek xalqi nutqida hol-ahvol so'ralganda ahvoli haqida turlicha ma'lumot berishi, bunda nutqiy etiket birliklaridan foydalanishda vaziyatga qarab, noverbal vositalardan foydalanishi mumkin. Hol-ahvol so'rashish jarayonida o'zbek xalqi lisoniy olamida asrlar osha shakllargan "*Uydagi gap, ko'chaga to'g'ri kelmaydi*" ishorasiga amal qilinib, oilaviy ahvolini yaxshi ko'rsatishga, yashashi yaxshi ekanligini ishontirishga harakat qilishadi. Ammo chex xalqi madaniyatida, odatda, hayotining yaxshi ketayotganligini aytishga unchalik moyil emaslar, balki shikoyat qilishni afzal ko'radilar. Qizig'i shundaki, shikoyatlarini quvnoq ohangda aytadilar va o'z tashvishlaridan maqtanadilar. Qiyinchiliklari va qayg'ulari bilan faxrlanadilar [9]. O'zbek xalq ertaklaridan olingan quyidagi ertak matniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, o'zbek xalqiga xos mental xususiyat o'z aksini topgan.

Shunda podsho:

- *Shunday go'zal ayol o'tinchiga xotin bo'lib yashaysizmi, topilmadimi bir boyroq odam? – debdi.*

- *Boyroqni boshimga uraymi, podshoning ham xotini bo'lib ko'rganman, ming podshodan bir qul, ming oltindan bir pul yaxshi, - debdi xotin. Podsho taajjublanib yana so'rabdi:*

- *Nima, podshoning xotini bo'lish yomonmi?*

- Agar podshoning xotini bo'lsang qirq kunda bir kulasan-u, kunda ming o'lib tirilasan, erimga o'xshagan g'ariblar esa xotinlarini kunda ming kuldirib, oyog'iga tikon kirsan tili bilan sug'urib olishga ham rozi bo'ladi, - debdi xotin (Oyjamol. "Axmoq podshoning dono xotini", 43-b.).

O'zbek xalq ertaklaridagi Ziyod botir, Qilich botir, Mamatboy ("Hunarli yigit"), Zumrad, Malikayi Husnobod, Huriliqo, Uch og'ayni botirlar... kabi obrazlar nutqi, odobi, o'ziga xos xarakteri bilan o'zbek xalqiga xos mental xususiyatlarni asrlar davomida avloddan avlodga yetib kelishida alohida ahamiyatga ega obrazlar sifatida xalqimiz lisiniy manzarasida yashab kelmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, dunyo hamjamiyatida til va madaniyatining rivoji, adabiy tilni yanada rivoj toptirish, uning lisoniy normalarini yanada boyitish, silliqlash va takomillashtirish, tilning xalq madaniyati va ma'naviyatining ulug' xazinasini bo'lmish lug'aviy boyliklarini avaylab asrash, tildagi qadimiy an'analar, milliy-lisoniy ruhni tiklash, boyitish [1]da o'zbek xalq ertaklarining o'rni beqiyos. Xalq ertaklarimizda mavjud nutq odobini ko'rsatib beruvchi etiket birliklarni yosh avlod ongiga singdirish hamda ertaklardagi bosh obrazlardan o'rnak olishga o'rgatib borish tilshunoslik oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси (1-қисм) – Тошкент: Наврўз, 1997. – Б.40.
2. Красных В. В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. – М.: Гнозис, 2002. – С.11-30.
3. Маслова В. Введение в лингвокультурологию: Учебное пособие. – Москва: Издательство Наследие, 1997. – С.24.
5. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисониي хусусиятлари. Филол.фан. д-ри...дисс.автореф. – Тошкент, 2000. – Б.25-28-30.
6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: 2008. – Б.146.

7. Турдиева Ҳ. Нутқий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи (форс ва ўзбек тилларидаги материаллар асосида). Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Т.: 2020. – Б.6-13.

8. Умарова Н. Янги ўзбек шеъриятида лирик тафаккур ва миллий этиканинг бадиий уйғунлиги (Назар Шукур, Аъзам Ўктамлар шеърияти мисолида). Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Қарши, 2022. – Б.11.

9. Формановская Н.И. Речевой этикет и культура общения. – М.: Высшая школа, 1989. – С.152.

10. Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол.фан. д-ри...дисс.автореф. – Тошкент, 2000. – Б.32.

11. Usmanova Sh. Lingvokultirologiya. – Т.: 2019. – В.18.